

O'zbekiston Afg'onistonga insonparvarlik yordamini topshirdi



O'zbekiston Afg'onistonga insonparvarlik yordamini topshirdi

Afg'onistonning Hayraton shahrida afg'on tomoniga 1000 dona kislorod ballonlaridan iborat gumanitar yukni topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Ushbu insonparvarlik yordami pandemiyaning uchinchi to'liqini bilan duch kelgan qardosh Afg'oniston hukumatining murojaatiga binoan amalga oshirildi.

Shu munosabat bilan tashkil etilgan marosimda O'zbekiston Prezidentining Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili Ismatulla Irgashev, Balx viloyati gubernatori Farhod Azimiy, Surxondaryo viloyati hokimining o'rinbosari Anvar Oripov, Balx viloyat kengashi raisi Muhammad Hadid va boshqa rasmiylar ishtirok etdi.

Eslatib o'tamiz, 2021 yil yanvar oyida Prezident Shavkat Mirziyoevning shaxsiy ko'magi ostida afg'onistonlik shifokorlarning O'zbekistondagi klinikalarda pandemiyaga qarshi kurashish bo'yicha mamlakatimiz tajribasi bilan tanishishlari uchun o'quvlar tashkil etilgan edi.

